

## BOSHLANG'ICH SINIF DARS JARAYONLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**Norboyeva Dilrabo Davlatovna**

Termiz tuman 20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

**Ko'chimova Sanobar Ravshanovna**

Termiz tuman 20-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish samaradorligi hamda ona tili darslarida foydalaniladigan ayrim didaktik o'yinlar haqida artoflicha fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *nutq, malaka, ko'nikma, didaktik o'yinlar, o'quvchi, tadqiqot, metod.*

### ABSTRACT

*In this article, the effectiveness of using didactic games in the development of speaking skills and competences of elementary school students and some didactic games used in mother tongue lessons are discussed.*

**Key words:** *speech, competence, skill, didactic games, student, research, method.*

### **Kirish.**

Bugungi rivojlanib borayotgan zamon talablariga javob bera oladigan milliy baholash tizimini takomillashtirish maqsadida yurtimiz ta'lim tizimida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlantirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF 5712-sonli Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahoning 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kishiga erishish va xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish orqali o‘quvchilarining o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishlarda fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan<sup>1</sup>. Buning boshlanishi sifatida 2018-yil 12-noyabrda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va O‘zbekiston o‘rtasida xalqaro bilimlarni baholash dasturi (Programme for international student assessment PISA)da ishtirok etish to‘g‘risida kelishuv imzolandi. Shunga ko‘ra barcha umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida didaktik, interfaol o‘yinlardan foydalanilishiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Fikrimizni dars jarayonlarida foydalanish mumkin bo‘lgan ayrim didaktik o‘yinlar haqida davom ettirsak.

### **Asosiy qism**

Avvalambor, didaktik o‘yinli metodlar o‘qituvchi hamda o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan o‘yin turlarini o‘z ichiga oladi. Bu turdagi o‘yinlar o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma‘naviy, ma‘rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu metod o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi,

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF 5712 sonli Farmoni

uchragan qiyinchilik, to‘siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi<sup>1</sup>.

Boshlang‘ich sinflarda olib boriladigan ta‘lim-tarbiya jarayonida asosan o‘quvchilarda ta‘lim olishga bo‘lgan intilish, rivojlantiruvchi motivlarini, ularni turli yo‘nalishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan, didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Didaktika asoschisi rus olimi K.D.Ushinskiy boshlang‘ich maktab o‘quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. “Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsani o‘rgatadi. Bola ikki-uch yil ichida shunchalik ko‘p narsa o‘rganadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Ona tilining ulug‘ pedagogligi ham ana shundadir” deyishi fikrimiz dalilidir. Quyida umumta‘lim maktablarida boshlang‘ich sinlarida ona tili darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan ayrim didaktik o‘yinlardan na‘munalar keltirmoqdamiz.

#### «Sirli kataklar» o‘yini

O‘qituvchi ko‘rgazmani ko‘rsatib, kerakli harflarni qo‘yib so‘zlarni o‘qishni aytadi. Bunday ko‘rgazmalar alifbe kitobining hamma mavzusida bor kitobning sahifalarida o‘rganilayotgan tovush va harf bilan bog‘liq narsa –buyumlarning rasmi berilgan. Shu rasmlarning ostiga katakchalar ilova qilingan. Katakchalar soni harflar soniga teng bo‘lganligi o‘quvchilarning o‘yinni to‘g‘ri bajarishiga yordam beradi. Bu o‘yinni uyushtirishda o‘quvchilar guruhiga ikki-uchtadan shunday topishmoqlar beriladi.

#### «Bilag‘on boshliqlar» o‘yini

Bu o‘yin ham orfografik o‘yinlar turiga kiradi. O‘quvchilar odatdagiday ikki guruhga bo‘linadi. Har bir guruhning sardori belgilanadi. Ana shu guruh boshliqlari xattaxtaga chiqariladi. Guruh boshliqlari odatda a‘lochi o‘quvchilar bo‘lishadi. O‘yinda o‘quvchilarning ana shu tomoni hisobga olinib, o‘nta so‘z xattaxtaga yoziladi.

---

<sup>1</sup> Uchqunovna D. Umumta‘lim maktablari boshlang‘ich sinflarda fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilar bilan ishlashning o‘ziga xos metodlari Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | CSPI CONFERENCE 2 | 2022

Katta mukammal minnatdor tanaffus arra mitti ikki tabassum xokkey tennis. Yuqorida berilgan soʻzlarni har bir boshliq ustun shaklida yozadi. Soʻzlarning yozilishi kuzatiladi. Xatolar guruh boʻyicha hisoblanadi. Har bir guruhning boshligʻi yoʻl qoʻygan xatolarni sanaydi. Birinchi guruh boshligʻi oʻnta soʻzdan ikkita xatoga yoʻl qoʻygan boʻlsa, unga sakkiz ball beriladi. Har ikkala guruh boshliqlari soʻzlarni tekshirib xatolarni sanab boradilar. Toʻgʻri yozilgan har bir soʻz uchun ball beriladi. Oxirida gʻolib guruh aniqlanadi va ragʻbatlantiriladi.

«Zarur harfni topib qoʻy» oʻyini

Oʻyinning ikkinchi bosqichi bir oz murakkab boʻlib, oʻquvchilarning turli xil tovushlardan bittasini tanlab olishlari talab qilinadi.

da. . . . tar (a, o, s, f, k)-daftar,

ma. . . . don (o, y, sh, k, gʻ, l) maydon,

Qu. . . . on (y, o, sh, q, r) –quyon

fo. . . . us (m, n, s, l)-fonus,

ma. . . . ematika (a, o, u, t, i)-. . . . ,

oʻq. . . . tuvchi (s, u, i, a)-. . . . <sup>1</sup>. Shu va boshqa shu kabi didaktik oʻyinlardan foydalanish oʻquvchilarda darsga nisbatan qiziqishni oshirishi hamda yuqori samaradorlikka olib kelishi shubhasiz.

### **Xulosa**

Xulosa sifatida shuni taʼkidlab oʻtmoqchiziki, boshlangʻich sinflarda tashkil etiladigan darslarning samaradorligi koʻp jihatdan didaktik oʻyinlardan toʻgʻri va doimiy foydalanishga bogʻliq. Taʼlim va darslarni tashkil etishning oʻzi kabi didaktik metodlar ham doimiy rivojlanishda boʻladi. Oʻz kasbiga fidoiy va jonkuyar boʻlgan har bir oʻqituvchi oʻz faoliyatida didaktik va interfaol metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>1</sup> Boboqulova M. Boshlangʻich sinf ona tili darslarida oʻyinli texnologiyalardan foydalanish SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 № 2

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF 5712-sonli Farmoni

2. Uchqunovna D. Umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinflarda fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilar bilan ishlashning o‘ziga xos metodlari Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | CSPI CONFERENCE 2 | 2022

3. Avliyoqulov N.X. “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari”-Toshkent-2001

4. Boboqulova M. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022 № 2